

# **“Ogohlik – davr talabi”**

Joriy yilning 8-fevral sanasida Toshkent shahridagi Turin politeknika universiteti talaba-yoshlari o’rtasida “Ogohlik – davr talabi” mavzusida tadbir bo’lib o’tdi. Ushbu mavzuni yoritib berish uchun O’zbekiston xalqaro islam akademiyasi katta o’qituvchisi S.S.Saidjalolov mehmon sifatida taklif qilindi.

O’zlarining chiqishlarida, hozirgi kunda dolzarb muammo hisoblanayotgan terrorizm, radikalizm, ekstremizm, yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishi va yot g’oyalarning salbiy ta’siri hamda yurtimizda ularga qarshi kurashish uchun olib borilayotgan ishlar haqida gapirib, talabalarga tushuncha berib o’tdilar.

Tadbir so’ngida talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javob oldilar.



